



O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI HOKIMLIGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MARKAZI BUXORO
VILOYATI HUDUDY BO‘LINMASI**

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an‘anaviy respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

“Durdona” nashriyoti

ЎЗБЕК ТИЛИ ВА УНИНГ ТА’ЛИМИ ТАРАҚҚИЙОТИ: МУАММО ВА YECHIM

UO‘K 81(575.1)

81.2g(5U)

A 18

Yuldasheva D.N.

“O‘zbek tili va uning ta’limi taraqqiyoti: muammo va yechim” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. [Teksm] 19-oktabr 2022-yil. / D/N/Yuldasheva. - Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2022. - 290 c.

KBK 81.2g(5U)

Mas’ul muharrir

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G‘aybullayeva N.I.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD) Ahmadova U.Sh.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma’lumotlari, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari shaxsan mas’uldirlar.

© Buxoro, 2022 *“Durdona” nashriyoti*

ISBN 978-9943-5871-0-6

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назарова С.А. Сўзларнинг бирикиш омиллари ва усуллари. –Т.: Фан, 2013. – 98 б.
2. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
3. Nazarova S. O'tli birikmalar lisoniy imkoniyat voqeligi sifatida.– Buxoro: Durdona, 2016. – 80 b.
4. Холмирзаев Шукур. Бодом кишда гуллади. Ҳикоялар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 320 б.
5. Cho'lpon. Kecha va kunduz. –Т.: Sharq, 2016. – 304 b.

**[I~F] QURILMALI FE'LLI BIRIKMALARNING NUTQIY
IMKONIYATLARI**

Nazarova Saida Axmedjanovna,
BuxDU dotsent
Yokubova Shaxnoza Yusufovna,
BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbek tili substansial sintaksisida hokim a'zosi fe'lli so'z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini o'rganish muammosi o'z yechimlarini topmagan. [I~F] qurilmali fe'lli birikmalarning nutqiy nominatsion, kommunikativ, stilistik, nutq yaratish bilan bog'liq xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu maqolada hokim a'zosi fe'lli so'z birikmalarining [I~F] qurilmali turiga xos nutqiy imkoniyatlar badiiy matn asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fe'lli birikma, substansial tahlil, nutq, voqelanish, lisoniy sintaktik qolip, oraliq qolip, badiiy matn.

Bugun davlat tili rutbasidagi o'zbek tili mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi o'laroq amalga oshirilayotgan ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy islohotlariga kamarbastalikning huzurini tatib, erkin takomil va taraqqiyot yo'lidan bormoqda. [1; 54] Jumladan, ona tilimizning milliy grammatik talqini va uning natijalarini qamrab olgan lug'atlar, o'quv adabiyotlari ta'lim tizimining barcha bog'inlari hamda bosqichlari orasidagi uzluksizlikni ta'milashga xizmat qilmoqda. O'zbek tilida hokim a'zosi fe'lli birikmalarning substansial tadqiqida mavjud muammolar o'z yechimlarini topmagan. Qayd etish

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

kerakki, fe'lli birikmalarning nutqiy nominatsion, kommunikativ, stilistik, nutq yaratish bilan bog'liq xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois xoh ilmiy, xoh o'quv adabiyotlari bo'lsin, mazkur masalalarning yoritilishi yoki ma'lumotlarning berilishida kemtikliklar bor. Bu esa, hokim a'zosi fe'lli birikmalarning lisoniy qurilishiga xos xususiyatlarni, ayniqsa, bu so'z birikmalarining nutqiy voqelanish imkoniyatlari, nutqiy-uslubiy xususiyatlarini keng miqyosda o'rganishni taqozo etadi. Zero, fe'llarning biriktirish va so'z birikmalari hosil qilish imkoniyatlarini aniqlash, fe'lli so'z birikmalarining nutq faoliyatidagi o'rni va vazifasini belgilash, nutq uslublarida qo'llanilishini o'rganish nafaqat substansial lingvistika, balki uslubshunoslik, pragmatik lingvistika nuqtayi nazaridan behad muhimdir.

Fe'l semantik jihatdan harakat-holatni ifodalovchi so'zlar va ularni birlashtiruvchi yirik turkumdir. Uning lug'aviy ma'no imkoniyatlari, tabiiyki, boshqa so'zlar bilan birikuvida namoyon bo'ladi. Fe'l leksemalari, odatda, nutqda yakka holda, alohida yuzaga chiqmaydi. Ular ot, sifat, son, ravish, olmosh va taqlid leksemalari bilan birikib, muayyan predmet, narsa-hodisaga xos harakat va holatning belgi-xususiyatini hamda obyektga yo'naltirilgan yoxud obyekt bilan bog'liq harakat-holatni ifodalab keladi. Chunonchi, ma'lum nutqiy ehtiyoj, muayyan kommunikativ maqsad tufayli yuzaga chiqadigan *tez yurmoq, yaxshi o'qimoq, uch-to'rt so'ramoq, bitta olmoq, pinhona uchrashmoq, telbalarcha sevmok, shunday yashamoq, har gal aytmoq, sim-sim og'rimoq, milt-milt yonmoq* kabi so'z birikmalari fe'llar hokim a'zo mavqeyida voqelanishini ko'rsatadi. Bu hosilalar fe'llar (ya'ni *yurmoq, o'qimoq, so'ramoq, olmoq, uchrashmoq, sevmok, yashamoq, aytmoq, og'rimoq, yonmoq*) *tez, yaxshi, ikki-uch marta, bitta, pinhona, telbalarcha, shunday, har gal, sim-sim, milt-milt* so'zlari bilan bog'lanib, harakat va holatning muayyan belgi-xususiyatini bildiruvchi so'z birikmalarini hosil qilish imkoniyati voqelashganligidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur nutqiy hosilalar fe'l leksemalarining hokim vaziyatni egallashini, demak, ularning biriktirish imkoniyatlarini ham namoyon etadi. Biroq hosilalarni bir-biridan farqlovchi jihat tobe vaziyatni egallagan leksemalarning sifat, son, ravish, olmosh va taqlid turkumiga mansubligi bilan bog'liq. Ta'kidlash lozimki, harakat-holatni anglatish vazifasi fe'lning aynan sanab o'tilgan turkumlarga oid so'zlar bilan

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

sintaktik aloqaga kirishuvida yaqqollashadi. Demak, fe'ning lug'aviy ma'nosi va semantik imkoniyatlari boshqa leksemalar bilan sintagmatik munosabatida ko'zga tashlanadi.

O'zbek tilida fe'llar hokim vaziyatda, sifat, son, ravish, olmosh, taqlid turkumlariga mansub so'zlar tobe vaziyatda voqelashuvchi, aynan fe'llar va mazkur turkumlarga oid so'zlarning tobe-hokim munosabatidan yuzaga keluvchi nutqiy hosilalar [belgi-harakat] ma'noli so'z birikmalari hisoblanadi. Ular so'z birikmalarining alohida turi sifatida fe'lli birikmalar sirasida ajratiladi. Fe'lli birikmalarning bu turi, ya'ni harakat va holatning muayyan belgi-xususiyatini bildiruvchi so'z birikmalari [I~F]=SBLSQi asosida hosil bo'ladi.[2; 98]

Hokim a'zosi fe'lli birikmalarning nutqiy voqelanishini tadqiq etish dolzarb muammolar kun tartibida turgan ekan, bu muammoni lisoniy sintaktik qurilishi [I~F]=SBLSQida mujassamlashgan fe'lli birikmalarning uslubiy qo'llanilishini o'rganish natijasida yechish mumkin. Bu esa, [I~F] qurilmali fe'lli birikmalarni badiiy matn asosida o'rganish va nutqiy uslubiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. O'z ijod mahsulida o'zbek tili imkoniyatlarining betakror voqelanishi va badiiy sayqaliga erishgan adib A.Qahorning hikoyalari matnida qo'llangan fe'lli birikmalar, tabiiyki, [I~F] qurilmali so'z birikmalarining uslubiy qo'llanilishi xususidagi mulohazalarimizning dalili sifatida tanlangan. Chunonchi:

1. *Abdurahmon yuborgan sovchi Niso buviga shunday dedi: "Sizda ikkita bola bo'lsa, u kishida bitta bor...Usta bolani juda yaxshi ko'radilar"* [3, 258]

2. *Usta Abdurahmon qizlarni ko'p uradi.* [3, 258]

"Boshsiz odam" hikoyasidan olingan ushbu matnlarda *shunday demoq, ko'p urmoq, ko'p martalab kulmoq, yana ketmoq* birikmalari ko'zga tashlanadi. Bu so'z birikma(SB)lari sintaktik qurilish xususiyatiga ko'ra umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni bu nutqiy birliklar [I~F]=SB umumiy qolipining mahsulidir. Biroq bu birikmalar tobe so'zning leksik-morfologik xususiyatiga ko'ra farqlanuvchi va birikish usulini leksik-morfologik jihatdan belgilovchi turli oraliq qoliplarga tegishliligini ham hisobga olish kerak. Negaki, fe'lli birikmalarning nutqiy-uslubiy qo'llanilishida so'zlarning leksik-semantik va morfologik imkoniyatlari muhim lisoniy omillar sifatida ahamiyatga ega bo'lib, hokim vaziyatdagi fe'llar ifodalayotgan

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

harakat-holatning belgi-xususiyatini qanday lisoniy imkoniyatlar asosida yuzaga chiqayotganini aniqlab beradi. Jumladan, *shunday demoq* birikmasi [Ol~F]=SB oraliq qolipi asosida shakllangan bo‘lib, *Abdurahmon yuborgan sovchi Niso buviga shunday dedi* jumlasida so‘zlovchi(sovchi)ning nutqni ifodalash harakati – *demoq* fe‘liga xos xususiyat olmoshning ishoraviylik belgisi bilan ifodalanganligini ko‘rsatadi. Matnda bu birikma harakatning ishoraviy belgiga egalik ma‘nosini yuzaga chiqargan. Keyingi matnda (2-jumlada) [Sf~F]=SB oraliq qolipi hosilasi, ya‘ni *ko‘p urmoq* birikmasi qo‘llangan bo‘lib, unda qo‘l harakati va bu harakatga xos miqdoriy belgi ma‘nosi reallashgan. Mazkur birikma *Usta Abdurahmon qizlarni ko‘p uradi* ifodasida oddiygina *qizlarni urmoq* shaklida emas, balki asar qahramoni xarakteridagi qo‘pollik, johillik, shafqatsizlik kabi illatlarni ko‘rsatuvchi *ko‘p urmoq* SBsi ko‘rinishida qo‘llangan. Fe‘lli birikmaning bunday qo‘llanilishida asar muallifining maqsadi, ya‘ni usta Abdurahmon toifasidagi kishilarning ma‘naviy tuban olamini kitobxon ko‘z o‘ngida yorqin gavdalantirish va ularning individual xususiyatlarini umumlashtirib, qahramonlarning hayotiyligiga ishonirish aniq aks etgan. Demak, [Sf~F]=SB oraliq qolipi hosilasi – *ko‘p urmoq* qahramon xarakterini individuallashtirishga xizmat qiladi. Fe‘lli SBlarining badiiy matnda qahramon xarakterini individuallashtirishga xizmat qilish vazifasi birgina dalil bilan isbotlanmaydi. Bu fikrning isboti uchun fe‘lli birikmalar qo‘llangan A.Qahhoming “Boshsiz odam” hikoyasi va boshqa hikoyalari matnidan, umuman, badiiy nutqdan yuzlab dalillarni keltirish mumkin. Jumladan, “Boshsiz odam” hikoyasida *ko‘p martalab kulmoq, yana ketmoq* birikmalari voqelashgan matnlarga diqqat qilaylik:

1. *Shundan keyin Niso buvi ko‘p martalab “kuldi”*. [3, 258]

2. *Niso buvi kasalxonadan yarim kechasi kelib, saharda yana ketdi*. [3, 260]

Ushbu matnlarda voqelashgan *ko‘p martalab kulmoq, yana ketmoq* birikmalarida Niso buvi – asar qahramonining harakati va holatiga tegishli xususiyatlar ifodalangan. Birinchi matnda *ko‘p martalab kulmoq* [R~F]=SB oraliq qolipi hosilasi sifatida qahramonning kulish holati (bu holat soxtaligi uchun “kulmoq” tarzida berilgan) va bu holatning miqdorini bildiradi. Ikkinchi matnda Niso buvi tabiatidagi tinib-tinchimaslik, jonsaraklik va bezovtalik xususiyatlari [R~F]=SB oraliq qolipining hosilasi – *yana ketmoq*

ЎZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

yordamida, bir nuqtadan uzoqlashish harakatining tezlik hamda qaytarilish darajasini ifodalash orqali ko'rsatiladi.

Badiiy asar matnida [Sf~F]=SB, [R~F]=SB, [Ol~F]=SB oraliq qoliplari hosilalaridan boshqa oraliq qoliplar nutqiy mahsuli voqelasha olmaydimi? Faqat shu qoliplargina o'z mahsuli faolligi tufayli tilga olinadimi? Fe'lli SBlarining nutqiy qo'llanishi shu oraliq qoliplarning voqelanishi bilan bog'liqmi? Bu kabi savollarning tug'ilishi tabiiydir. Negaki, fe'lli SBlarining badiiy nutqda qo'llanishini ko'zdan kechirilgan dalillar bilan cheklab bo'lmaydi. Fe'lli SBlarining badiiy nutqda qo'llanish imkoniyatlari biz o'ylagan darajadan kattaroq va kengroqdir. Bu esa fe'lli birikmalarning badiiy nutqda voqelanish imkoniyatlarini ko'rsatuvchi dalillarni izlash va tahlil qilishda davom etishni talab qiladi. Quyidagi nutqiy dalillar [Sf~F]=SB, [R~F]=SB, [Ol~F]=SB oraliq qoliplari hosilalaridan boshqa oraliq qoliplar mahsuli voqelasha olishini tasdiqlaydi:

1. *Faxriddin osilib turgan pastki labini bir-ikki qimirlatib, bilagi bilan burnini artib javob berdi.* [3, 259]

2. *Turg'unoy har qadamda bir dam olib, yuz yo'talib tushib keldi* [3, 266]

3. *Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi.* [3, 286]

4. *Sulaymonov qaymoqdan bir qoshiq olib ichdi-da, birdan afti burushdi, tuflagani joy izladi, tufladi.* [3, 295]

5. *Turg'unoy oxiri bosgan oyog'ini ko'tara olmay to'xtab, Mastonning yelkasiga boshini qo'ydi va piq-piq yig'ladi.* [3, 265]

6. *Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi.* [3, 291]

Berilgan oltita nutqiy parchada [belgi-harakat] umumiy mazmunida birlashuvchi, ammo har biri bu mazmunni o'ziga xos tarzda – ma'no nozikligi bilan yuzaga chiqargan yetti xil fe'lli birikma voqelashgan. Bular *bir-ikki qimirlatmoq, bir dam olmoq, yuz yo'talmoq, ikki kosa ichmoq, bir qoshiq olmoq, piq-piq yig'lamoq, dag'-dag' titramoq* birikmalaridir. Birikmalar tarkibidagi so'zlarning leksik-semantik va morfologik xususiyatlari birikish tarzida umumlashtirilsa, ular [S~F]=SB va [T~F]=SB oraliq qoliplari mahsuli sifatida ikkiga ajraladi. To'rtta nutqiy parchada qo'llangan *bir-ikki*

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

qimirlatmoq, bir dam olmoq, yuz yo'talmoq, ikki kosa ichmoq, bir qoshiq olmoq birikmalari son va fe'ning birikish tarzini umumlashtiruvchi [S~F]=SB qolipining hosilalari ekanligi ma'lum bo'ladi. Keyingi ikki nutqiy parchadagi *piq-piq yig'lamoq, dag'-dag' titramoq* birikmalari [T~F]=SB oraliq qolipi hosilalari bo'lib, ularda taqlid va fe'ning birikish tarzi o'z ifodasini topgan. Shunisi ahamiyatliki, [S~F]=SB qolipining hosilalari nutqiy parchalarda harakatning miqdoriy belgisini bildirishi bilan boshqa fe'lli birikmalardan farqlanadi. Masalan, *bir-ikki qimirlatmoq* lab harakati va uning noaniq, taxminiy miqdorini, *bir dam olmoq* holatning bir leksemasi ma'noviy tarkibidagi "umumiy mavhum miqdor" semasi asosida umumlashgan belgisini, *yuz yo'talmoq* fiziologik harakatning *yuz* soni bilan ifodalanuvchi aniq miqdorini, *ikki kosa ichmoq* og'iz harakatining aniq miqdorini, *bir qoshiq olmoq* qo'l harakatining aniq miqdorini anglatadi. Ayni paytda, *yuz yo'talmoq* birikmasida *marta* hisob so'zidagi miqdor ma'nosining *yuz* so'ziga, *ikki kosa ichmoq* SBsida *ovqat-go'ja* ma'nosining *kosa* hisob so'ziga ko'chirilishi metonimiya usuli asosida amalga oshirilgan. A.Qahhor so'zlashuvga xos oddiylik va tilning iqtisod qonunidan mohirona foydalanib, fe'lli birikmalarning uslubiy qollanish imkoniyatlarini badiiy tasvirda troplarlarning tipik ko'rinishi – metonimiya yordamida ko'rsatgan. Demak, fe'lli birikmalar badiiy tasvirning ifodaviyligi, hayotiyligi va ta'sirchanligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan troplarni, xususan, metonimiyani yuzaga chiqarishiga ishonish mumkin. Taqlid va fe'l birikuvidan vujudga kelgan *piq-piq yig'lamoq, dag'-dag' titramoq* birikmalari ham troplarni shakllantiradimi? Bu savolga javoban shunday deyish o'rinli: *piq-piq yig'lamoq, dag'-dag' titramoq* hosilalarida *piq-piq* taqlid so'zi ruhiy holat(*yig'lamoq*)ning tovushiga xos tasviriy belgini, *dag'-dag'* taqlidi esa jismoniy holat(*titramoq*)ning tashqi ko'rinishiga xos tasviriy belgini bildiradi. Ruhiy holat tovushiga xos va jismoniy holatning tashqi ko'rinishiga xos tasviriy belgisi ifodalangan mazkur birikmalar troplarni shakllantirmaydi, lekin asar matnida qahramonlarning ruhiy va jismoniy holatini aniq, ishonarli va jonli tasvirlash vositasiga aylangan. Zero, oddiygina *piq-piq yig'lamoq, dag'-dag' titramoq* SBlari kitobxon ko'z oldida oti o'lgach, dashtni piyoda kezib, oyog'ini bosolmay yig'layotgan Turg'unoy va bisotidagi birgina ho'kizi bo'lib, u ham o'g'irlangan Qobil boboning nochor holatini yorqin gavdalantiradi. Mana shunday jonli manzaraning kitobxon ko'z

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

o'ngida gavdalanishini ta'minlovchi lisoniy imkoniyat fe'lli birikmalar shaklida voqelashgan bo'lib, [I~F] qurilmali fe'lli so'z birikmalarining nutqiy-uslubiy imkoniyatlari kengligi va serqirraligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. –Т.: Маънавият, 1999. – 64 б.
- 2.Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
- 3.Қаҳҳор, Абдулла. Асарлар: 5 жилдлик. 1-жилд. Сароб. Роман. Ҳикоялар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 336 б.

TILNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Po'latova Zilola Mahmud qizi,

Vobkent tumani 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Til – har bir millat o'zligining ajralmas belgisi, millatning ruhidir. Til millat va jamiyat mavjudligining dalili, borlig'i va hayotining mislsiz ko'zgusi, taraqqiyotining o'lchovidir. Har qanday millatning ijtimoiy shakllanishini belgilovchi bosh mezon ham uning tilidir.

Kalit so'zlar: *til, diniy talqin, dunyoviy talqin, aloqa vositasi, ijtimoiy ong shakli*

TIL - insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a'zolarining fikr ifodalashi va o'zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita. Tilning tabiiy-ilmiy, diniy-dunyoviy talqinlari bor. Diniy talqinga ko'ra, Til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan va hozirgi holicha insonga berilgan. Dunyoviy talqiniga ko'ra, til hozirgi ko'rinishini olguncha juda uzoq evolyutsion jarayonlarni, ya'ni insonning shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari bilan teng davrni bosib o'tgan. Ilm-fan inson tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishi natijasida shunday xulosaga keldiki, til aloqa vositasi, nutq sifatida, shubhasiz, faqat inson miyasining mahsulidir. Ayrim boshqa jonivorlar, masalan, shimpanze, to'tiqush, chug'urchiqlar ham insonga xos tovushlar chiqarib "gaplashadi", hatto, ayrim hollarda jumla va iboralarni takrorlaydi. Biroq, ular inson kabi gaplashishga qodir emas. Og'zaki nutqqa o'rganish - insoniyatning evolyutsion taraqqiyotida hal qiluvchi qadam bo'ldi. Nutq qobiliyati unga inson sivilizatsiyasi asoslarini qurish imkoniyatini yaratdi. Dastlabki inson jamoalari

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish

Zaripov B.	Давлат тили – миллий тараққиёт ва соғлом тафаккур мезони	4
Xamidov O.X.	Тил – миллатнинг ўзлиги	7
Rustamov A.	Учинчи ренесансга давлат тили билан эришамиз	9
Muxammedov M.M.	Тил – миллат кўзгуси, миллат кўёши	15
Jamilova B.S.	Ona tiliga muhabbat – millat qudratiga dalolat	18
Quvvatova D.H.	Юрагимнинг остида сайраб турган булбулим	21
Samandarova G.Y.	O'zbek tili – millat g'ururi	24
Yuldasheva D.N.	Ўзбек тилидек сўзга, иборага, ибрату ҳикматга бой тиллар санокли	25

1-sho'ba. O'zbek tilshunosligining nazariy masalalari

Abuzalova M.Q.	Лингвистика ва сохалар ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида	32
Axmedov A.R.	Qiyosiy-tarixiy metod	38
Asadov T.H., Mardonova S. O.	Badiiy asarda individual neologizm-semalar xususida	44
Hamdamova S. Sh.	"Begona tildan so'z olmoqdan qutulgan til yo'qdur"	49
Nazarova S.A., Xojiyeva M.Y.	[I~O] qurilmali birikmalarning badiiy nutqqa xoslanishi	53
Nazarova S.A., Yoqubova Sh. Y.	[I~F] qurilmali fe'lli birikmalarning nutqiy imkoniyatlari	60
Po'latova Z.M.	Tilning taraqqiyot bosqichlari	66
Rajabov D.Z., Bozorova G.Z.	O'zbek tilidagi ayrim pleonastik birliklar tasnifi xususida	68
Sa'dullayeva M.Q.	O'zbek xalq maqollarida "muhabbat" konseptining antroposentrik tadqiqi	73
Safarova M.Z.	Etnotoponimlar xususida (Vobkent tumani misolida)	76
Tilavova M.A.	Frazeologik birliklarning badiiy matndagi o'rni	80

2-sho'ba. Amaliy tilshunoslik masalalari

Abuzalova M.Q., Boltayeva N.O'.	Tabassum –muloqotning universal vositasi sifatida	84
Adizova N.I.	Shoir Erkin Vohidovning antonimlardan foydalanish mahorati (shoir dostonlari misolida)	89
Ahmadova U.Sh., Latipova D.K.	Hunarmandchilik sohasida perifrazalar	95
Aminova M.	Insondagi ijobiy xarakter-xususiyatni baholovchi	99